
YOSHLAR PROKUROR KUBOGI UCHUN GILAMGA TUSHDILAR

O'zbek xalq milliy o'yinlari o'zining uzoq o'tmishi, boy tarixiga ega bo'lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan, ma'naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanalai. Zero, bolalar va o'smirlarni har tomonlama sog'lom, jismonan baquvvat, ma'nan zukko va topqir bo'lib ulg'ayishlarida har bitta milliy o'yinimizning o'z o'rni bor.



So'nggi yillarda yoshlarimizni sog'lom turmush tarziga targ'ib etish, ularning intellektual salohiyati bilan birgalikda jismonan barkamol bo'lib voyaga yetishlariga xizmat qiluvchi qadimiy xalq o'yinlarini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Buni tuman Bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning milliy kurash turi bo'yicha bo'lib o'tgan "Tuman prokurori kubogi" musobaqasi misolida ham ko'rish mumkin.



Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ular o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida tashkillangan musobaqada tumandagi mahallalarda yashovchi yoshlar vakillari 10 ta vazn toifasida gilamga tushdilar.

Ibrohim Mo'ydinov, Zohidjon Sobirjonov, Alimardon Ro'zamatov, Mubina Abdumajidova, Shahnoza Malikova kabi bir guruh yoshlar o'z vazn toifalarida g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

G'olib va sovrindorlarga tashkilotchilar tomonidan diplom, medal va esdalik sovg'alari topshirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-22 18:48:09